



**NYU YORK SHTAT INGLIZ TILINI
O'RGANIYOTGAN O'QUVCHILARNING OTA-
ONALARI UCHUN QO'LLANMA**

Hurmatli Ota-onalar/Vasiylar,

Nyu York Shtat Ta'llim Vazirligi, uning Ikki Tilli Ta'llim va Jahon Tillari bo'llimining vazifasi, o'quvchilarning ona tili inglez tilidan boshqa bo'lса, ular teng va yuqori darajadagi ta'llim samarasiga yetishni kafolatlaydi. Agar farzandingizning ona tili inglez tilidan boshqa bo'lса demak u inglez tilini o'rganishni harakat qilyapdi va farzandingiz ikkala tilni bir vaqta o'rganyapdi. Tabriklaymiz! Kelajakda, ikkita tilni biladigan bolalar buyuk imkoniyatlarga erishadi. Nyu York Shtat Ta'llim Vazirligi ikki tilli ta'llimni juda ham qadrlaydi va farzandingizning til bilimini oshirishi uchun va farzandingiz tilni puhta o'rganishi uchun eng yaxshi sharoitlarni yaratishga harakat qilamiz.

Biz sizni yangi qabul qilingan o'quvchilarning o'quv dasturlari bilan tanishishni taklif qilamiz. O'quvchilarning ona/asosiy tili inglez tilidan boshqa bo'lса, mavjud bo'lган dasturlar ularning inglez tili bilimidan malakali darajasiga erishisha yordam berishadi. Ushbu o'quvchilar Ingliz Tilini O'rganiyotgan O'quvchilar (ELLs) yoki Turli Tillarni O'rganiyotgan O'quvchilar(MLLs)deb atalishadi. Biz bilamizki, ushbu o'quvchilar nafaqat inglez tili ko'nikmalarini rivojlantirishadi ular hamdaikki tilda savodxonli bo'lismashadi yoki, ba'zi hollarda, turli tillarda savodxonli bo'lismashadi .

Nyu-York Shtati dunyodagi eng madaniy va tilshunos joylardan biri hisoblanadi. Shtatning o'z ichida 200 dan ortiq tillarda so'zlashadi. O'quvchilar boshqa tilni bilishi ularning merosi dir. Shuning uchun, ELLslar uchun mavjud bo'lган o'quv dasturlar o'quvchilarning ona / asosiy tilini e'tiborga olib, ular oliy ta'llim olishlariga qaratilgan.

Ushbu qo'llanmada siz, farzandingiz ELL deb qanday aniqlanishi, dasturlar mavjudligi, ELL dasturlaridan qanday chiqishi va ularning xizmatlari to'g'risida ma'lumotlarni bilib olishingiz mumkin. Bundan tashqari siz, mahalliy mакtablar tomonidan ta'minlangan ma'lumotlar va resurslar haqida o'rganishiz mumkin.

Biz ishonanimzki, ota-onalar va oilalar farzandlarining ijtimoyi, madaniy va akademik ehtiyojlarini e'tiborga olib, ular uchun mos bo'lган dasturlarni tanlashda asosiy rol o'ynashadi. Biz siz bilan birgalikda shu jarayon davomida ishlashni hayajon bilan kutamiz.

Baxtli, sog'lom va muvaffaqiyatli o'quv yili bilan tabriklayman!

Chin dildan,



Angelica Infante-Green

*Associate Commissioner of Bilingual Education and World Languages
The Office of Bilingual Education and World Languages
New York State Education Department*

MUNDARIJA

Ingliz tilini o'rganiyotgan o'quvchilar haqida savol-javoblar	Bet 1
Dasturlar to'g'risida	Bet 2
Ikki tilli Ta'lím	
• Ikki Tilli Ta'límga O'tish dasturlar	Bet 2
• Bir yoki Ikki tomonlama ikki til dasturlar	Bet 2
Ingliz tili yangi til dasturlar	Bet 3
Ingliz tilini o'rganiyotgan o'quvchilar va turli tillarni o'rganiyotgan o'quvchilar haqida afsonalar	Bet 5
Bilasizmi? Ikki tilli ta'lím va ikki til bilimi to'g'risida haqiqatlar	Bet 7
Farzandingizning ta'límida ishtirok etish	Bet 9
ELL Ota-onalari uchun resurslar	Bet 10



INGLIZ TILINI O'RGANIYOTGAN O'QUVCHILAR VA TURLI TILLARNI O'RGANIYOTGAN O'QUVCHILAR HAQIDA SAVOL-JAVOBLAR

Farzandim Ingliz tilini O'rganiyotgan O'quvchi (ELL)/Turli Tillarni O'rganiyotgan O'quvchi (MLL) deb qanday aniqlanadi?

Nyu York Shtatida, hamma yangi qabul qilingan o'quvchilar va ikki yildan keyin qaytib kelgan o'quvchilar Ona tili Savolnomasini (HLQ) to'ldirishlari shart. HQL qabul qilish paytida to'ldiriladi.

Ushu savolnoma, va norasmiy suhbat or'qali, maktabning malakali o'qituvchisi yoki boshqa mакtab xodimi, o'quvchining ona tilini aniqlashadi. Agar suhbat va savolnomaga binoan o'quvchining ona tili ingliz tilidan boshqa deb aniqlansa, farzandingizning ingliz tili bilimini aniqlash uchun u ingliz tilidan testni topshirishi shart. Ushu test Nyu York Shtat Ingliz Tilini O'rganiyotgan O'quvchini Aniqlash Testi (NYSITELL) deb ataladi.

NYSITELL natijalari farzandingizning ingliz tili darajasini (Kirish, Rivojlanish, O'tish, Kengaytirish va Buyrish) aniqlashga yordam beradi. Agar farzandingiz Kirish (Boshlang'ich), Rivojlanish (Past O'rtali), O'tish (O'rtali), yoki Kengaytirish (Ilgor) darajalari bo'yicha baholansa demak u ingliz tilini o'rganiyotgan o'quvchi deb aniqlanadi. ELLs ikki tilli Ta'lim (BE) yoki Ingliz Tili Yangi Til xizmatlariga ega bo'lishadi. Agar o'quvchi Buyrish (Malakali) darajasiga yetgan bo'lsa demak u ELL deb aniqlanmaydi.

NYSITELL natijalari o'qituvchilar o'quvchilarni yaxshiroq tayyorlashga yordam beradi. Ushbu ma'lumotlarni e'tiborga olib, o'qituvchilar o'quvchining ingliz tilidan tinglab tushunishini, gapirishini, o'qishini va yozishini aniqlashadi. Natijalar fandingizning o'quv dasturini uning ingliz tili bilimiga binoan Ingliz Tili Yangi til (ENL) haftali daqiqalarini rejalashtirishga yordam beradi.

O'quvchining ona tilini aniqlash jarayoni o'quv yili boshlanishdan avval yoki o'quvchi qabul qilingandan keyin birinchi un kun ichida amalga oshirishi shart.

Daraja	Ingliz tili bilimi bo'yicha tavsiif
Kirish (Boshlang'ich)	Kirish darajadagi o'quvchi akademik so'z boyligini oshirish va tilni puxta o'rganish uchun barcha til strukturalarni qo'llamadi va hali ingliz tilni turli akademik kontekstlarda foydalashni o'zlashtirmadi.
Rivojlanish (Past O'rtali)	Rivojlanish darajadagi o'quvchi akademik so'z boyligini oshirish va tilni puxta o'rganish uchun biroz til strukturalarni qo'lladi lekin hali ingliz tilni turli akademik kontekstlarda foydalashni o'zlashtirmadi.
O'tish (O'rtali)	O'tish darajadagi o'quvchi akademik so'z boyligini biroz oshirdi, lekin hali ingliz tilni turli akademik kontekstlarda foydalashni o'zlashtirmadi.
Kengaytirish (Ilgor)	Kengaytirish darajadagi o'quvchi akademik so'z boyligini oshirdi va ingliz tilni turli akademik kontekstlarda foydalashni o'zlashtirishga yaqinlashdi.
Buyrish (Malakali)	Buyrish darajadagi o'quvchi akademik so'z boyligini oshirdi va ingliz tilni turli akademik kontekstlarda foydalashni o'zlashtirdi. O'quvchi ingliz tili o'rganuvchisi (ELL) emas.

INGLIZ TILINI O'RGANIYOTGAN O'QUVCHILAR VA TURLI TILLARNI O'RGANIYOTGAN O'QUVCHILAR HAQIDA SAVOL-JAVOBLAR (davomi)

Dasturlar to'g'risida

Ingliz Tilini O'rganiyotgan O'quvchilar uchun qanaqa dasturlar mavjud?

Xozirgi paytda, Nyu York Shtati ikkita dasturni ELLs uchun shtatning maktab tumanlarida taqdim qiladi:

1. Ikki Tilli Ta'lism:
 - Ikki Tilli Ta'limga O'tish (TBE) Dasturi
 - Bir yoki ikki tomonlama Ikki til Dastur (OWDL/TWDL)
2. Ingliz Tili Yangi Til (ENL) Dasturi (Ilgari Ingliz Tili Ikkinchil Til yoki ESL deb ma'lum bo'lgan)

Ikkala dastur ELLslarning akademik bilimlarini qo'llab quvvatlaydi, lekin darslar davomida o'quvchining ona tilida yoki asosiy tilida va ingliz tilida o'tkazgan vaqtin har bir dasrturda farqli bo'ladi. Oilalar farzandlari uchun Ikki tilli Ta'limga O'tish, Bir yoki Ikki tomonlama Ikki til, yoki Ingliz Tili Yangi Til dasturlarni tanlashlari mumkin. Agar ushbu dasturlar sizning maktabingizda mavjud bo'lmasa, farzandingizni boshqa maktabda siz tanlagan dasturda qatnashishini talab qilishingiz mumkin. Ikki tilli Ta'limga O'tish yoki Bir yoki ikki tomonlama Ikki til dasturlarida ELLs majbur. Kamida, ELLslar ENL . Qo'shimcha ma'lumot olish uchun:

<http://www.p12.nysed.gov/biling/docs/Nowithdrawaloptionmemo.pdf>

Ikki Tilli Ta'lism

Ikki Tilli Ta'limga O'tish

Ikki Tilli Ta'limga O'tish Dasturlar qaysi o'quvchilaring ona / asosiy tili bir hil bo'lsa, ular ingliz tilidan so'zlashuvini, tushunishini, o'qishini va yozishini ona / assosiy tillida o'quv fanlar orqali o'rganishadi. O'quvchilaring ona/asosiy tili ular butun o'quv fanlardan samarali bo'lislari va oliy ta'lim olishga yordam beradi. Ushu dasturning maqsadi, o'quvchilar til bilimidan malakali darajasiga yetishlari bilan ular faqat ingliz tili qo'llanadigan sinflarga qo'shimcha yordamsiz o'tishlari uchun o'zlashtirilgan. Vaqt o'tishi bilan, ingliz tilidan beriladigan darslarning miqdori oshsa ham, Ikki Tilli Ta'lism dasturlari, ona/ asosiy tili qo'llanishi doimo majvud bo'ladi. Shunday qilib o'quvchilar ikkala tilni rivojlantirishlari bo'ladi.

Bir yoki ikki tomonlama Ikki til Dasturlar

Ushbu dasturlarda ingliz tilini biladigan va ingliz tilini bilmaydigan o'quvchilar bilingualism (ikkita tilda ravon so'zlash qobiliyati), biliteracy (ikkita tilda o'qish va yozish qobiliyati), madaniyatlararo mahorat va akademik malakasiga yetishlari va ELL dasturlarida o'qimaydigan o'quvchilar bilan teng bo'lislari uchun moslashtirilgan.

Bir tomonlama Ikki tilli Dastur asosan ona /asosiy tili bir xil bo'lgan o'quvchilardan iborat bo'ladi. O'qituvchi darslarni ingliz tilda va ona/maqsad* tilida beradi.

Ikki Tomonlama Ikki til Dasturlar ingliz tilini biladigan va ingliz tilini o'rganiyotgan o'quvchilardan iborat bo'ladi. O'qituvchi darslarni ingliz tilda va ona /asosiy tilda beradi. Ikki tilli dasturlarda, darslarning bir yarimi o'quvchilarig ona /asosiy tilida va boshqa yarimi ularning maqsad tilida o'tadi. Dasturning modeliga qarab ingliz tili va ona /maqsad tili foizi farqlanadi. Masalan, 90%-10% modeli, darsning katta foizi maqsad tilida, ingliz tilidan boshqa tilda, beriladi va vaqt o'tishi bilan 50%-50%gacha yetadi. Ushbu dasturlarning maqsadi o'quvchilaring savodxonligini va malakasini ham ingliz tilda ham ona/maqsad tilida rivojlash.

*Ikkinchil o'ganiyotgan/bilib olayotgan til maqsad tili deb ataladi.

INGLIZ TILINI O'RGANIYOTGAN O'QUVCHILAR VA TURLI TILLARNI O'RGANIYOTGAN O'QUVCHILAR HAQIDA SAVOL-JAVOBLAR (davomi)

Farzandim ko'pincha ona /asosiy tilida gapirsa u ingliz tilini o'rganadimi?

Ko'pchiliklarning tashvishi shundaki ular ikki tilni o'rganganiyotgan o'quvchilar adashtirib qolishadi deb o'ylashadi. 30 yil davomida o'tkazilgan tadqiqotlar ko'rsatdiki, ikkita tilni o'rganish odamlarni adashtirmaydi . Aslida, o'quvchining ona/asosiy tili orqali ingliz tilini tezroq o'rzanishga yordam beradi. Bundan tashqari, ikkita tilni o'rganuvchilar myaning faoliyatini va aql ko'nikmallarini rivojlantirishadi. Bir yoki ikki tomonlama Ikki til Dasturlarida, tili bilimi alohida o'rgatiladi. O'quvchilar har bir tilni aniq vaqtida va aniq kunlarda o'rganishadi . Ota-onalar dasturlarga tashrif buyurganlarida shuni ko'rishadiki, ikki tilni bir paytda o'rganish o'quvchilarni adashtirmaydi, aslida, til bilimini oshirishiga qulay keladi. Tadqiqotlar ko'rsatdiki, Bir yoki ikki tomonlama Ikki til dasturlarida qatnashadigan bolalar o'n oshlariga yetishi bilan, ularning ishtiroki bitta tilda so'zlashiyotgan tengdoshlari bilan baravarda yoki yurorida bo'ladi.

Ikki Tilli dasturlarda qanday darslar va o'quv vazifalarni ko'rishim mumkin bo'ladi?

O'quvchilar darslarning bir yarimi ingliz tilda va boshqa yarimini ona/asosiy tilida olishadi, lekin o'quv rejasি boshqa o'quvchilarning o'quv rejasи bilan bir xil bo'ladi. Dasturning modeliga qarab, o'quvchilar savodxonlikni va o'quv fanlar bilimini matematika, ilm, adabiyot, va tarix darslari orqali rivojlantirishadi. Ikki tilda so'zlashni biladigan va ikki tilda o'qishni va yozishni biladigan bola, ikkala tilda, ona/asosiy tilida ingliz tilida ham, tingleshni, so'zlashni, o'qishni va yozishni biladi. Ona tili ko'nikmalari ikkinchi tilni o'rganisha yordam beradi. O'quvchining ona/ asosiy tili savodxonligi kuchli bo'lsa u ikkinchi tilga ham o'tadi.

Ingliz Tili Yangi Til Dasturi

Ushbu dasturning darslari, ilgari Ingliz Tili Ikkinch til (ESL) deb atalgan edi, ingliz tilini o'rganish uchun o'zlashtirilgan. ENL dasturida, tillar va o'quv fanlar darslari ingliz tilida maxsus ENL usullari orqali beriladi. Darslarning biri ENL o'quv fanlari bilan birlashtirgan. O'quvchilar o'quv fanlar bilimi va ingliz tili bilimini hamda ona/asosiy tili bilimini ELL yordamlari orqali tushunishni boyitish uchun olishadi. Birlashtirgan ENL sinflarida, darslar bitta o'qituvchi tomonidan yoki ikkita o'qituvchi tomonidan beriladi. Bir holda, darslarni beradigan o'qituvchining ikki xilli o'quv litsenziysi, ENL va o'quv fan litsenziysi, bor bo'ladi. Boshqa holda, bitta o'qituvchining ENL, boshqa o'qituvchining esa o'quv fan litsenziysi bor bo'ladi. Yolg'iz ENL sinfida, darslar NYSning Ingliz tilini boshqa tilni biladiganlarga o'rgatish (ESOL) litsenziysi bor bo'lgan o'qituvchi tomonidan beriladi. O'quvchilar o'quv fanlar samarasiga yetish uchun ingliz tili bilimlarini rivojlantirishadi . Ushbu dastur odatda, o'quvchilarning ona/ asosiy tili har xil bo'lib, ular ingliz tilini birgalikda o'rganishadi, shu sababli, ikki tilli dasturda ular qatnasha olmaydi.

Ushbu dasturlarning farqi nima?

Ikki Tilli Dasturlar biliteracy va bilingualismni rivojlash uchun darslar ikalla tilda beriladi. Ikki Tilli Ta'llimga O'tish dasturining maqsadi, o'quvchilarning ona/asosiy tili orqali, ularning sinf bosqiching akademik ko'nikmalarini va bilimlarini rivojlash hamda ingliz tilini o'rganishga yordam berish uchun o'zlashtirilgan. ENL darslari va modellari, asosan ingliz va ona/asosiy tilda darslarni taqdim qiladi. Iltimos yanagi betda keltirilgan sxemani ko'ring. Ushbu sxema har bir dasturning modelini solishtiradi.

INGLIZ TILINI O'RGANIYOTGAN O'QUVCHILAR VA TURLI TILLARNI O'RGANIYOTGAN O'QUVCHILAR HAQIDA SAVOL-JAVOBLAR (davomi)

Ikki Tilli Dasturlar	
Tillar qo'llanishi	Odatda 50% Ingliz tilida and 50% ona tilida yoki maqsad tilida yoki 90% ona tilida yoki maqsad tilida va 10% ingliz tilida, 50%-50%gacha oshadi. (Foiz dasturning modeliga qarab farq qiladi)
Maqsadlar	Ingliz tili va ona /maqsad tili savodxonligiga (biliteracy) va bilimiga (bilingualism) yetish

Ikki Tilli Ta'limga O'tish Dasturlari	
Tillar qo'llanishi	Ona/asosiy tili qo'llanishi kamayadi lekin Ingliz tili qo'llanishi oshadi
Maqsadlar	Ingliz tilini o'rganish paytida ona /asosiy tili orqali o'quv fanlarni o'rganadi

Ingliz Tili Yangi Til Dasturi	
Tilla qo'llanishi	Asosan ingliz tilida (ona/asosiy til yordami orqali Ingliz tilini egallashi taqdim qilinadi)
Maqsadlar	ELLslarga Ingliz tili malakasini oshirtilish uchun yordam beriladi

Farzandimning dasturlari haqida qaerda qo'shimcha ma'lumotlarni olishim mumkin?

Nyu York Shtatida maktablari yagni qabul qilindan o'quvchilarining ota-onalari va vasiylari uchun tanishtirish uchrashuvlarni taqdim qilishlari va maktabingizda va tumaningizda mavjud bo'lgan turli ELL dasturlar haqida ma'lumotlarni berishlari shart. Uchrashuv paytiday siz standartlar va o'quv rejalar haqida ma'lumotlarni olishiz mumkin bo'ladi, shu bilan birga, ELL dasturlari haqidagi ma'lumotlar ona tilingidga taqdim qilinadi va ELL dasturlari haqida savollarni so'rashingiz ham mumkin bo'ladi, zarur bo'lsa tarjimon yordamidan foydalanishiz mumkin. Uchrashuv oxirida, siz zarur bo'lgan ma'lumotlar berilishi haqida ELL Ota –Onalar Tanishtirish Uchrashuvi Savolnomasini to'ldirasiz. Undan tashqari, sizga ELL O'quvchining Dasturini Tanlash anketasi beriladi. Ushbu anketa orqali farzandingizga mos kelgan xizmatlarni tanlash uchun yordam beradi. Ushbu ma'lumotlar ona tilingizda/ asosiy tilingizda ham mavjud bo'ladi.

Farzandim ELL statusidan qachon chiqadi?

ELL statusidan chiqish uchun to'rtta yo'li bo':

K-12 Sinflar	NYSESLATdan Buyruq/Malakali darajasida yetish
3-8 Sinflar	NYSESLATdan Kengaytirish/Ilgor darajasiga yetish va shu yilda NYS Ingliz Tili testidan 3 yoki undan yuqori ballarni to'plash
9-12 Sinflar	NYSESLATdan Kengaytirish/Ilgor darajasiga yetish va shu yilda Ingliz Tili Regents Imtihonidan 65 yoki undan yuqori ballarni to'plash
Nogiron Ellar	Muqobil baholash usuli o'quvchining til bilimini aniqlash uchun qo'llaniladi (ruhsat kutilyapti)

ELL statusidan chiqishi bilan, o'quvchi sobiq ELL deb ataladi. Sobiq ELLslar keying ikki yil davomida ELL xizmatlariga ega bo'lishadi.

Ingliz tilini o'rganiyotgan o'quvchilar va turli tillarni o'rganiyotgan o'quvchilar haqida afsonalar

Afsona 1: ELLslarning ko'pchiligi Amerika Qo'shma Shtatlari tashqarida tug'ilgan (AQSH).

Nyu York Shtatining maktablarida Ingliz Tilini O'rganiyotgan O'quvchilarning soni 215,000 dan oshiq. Ularning yoshi 5-18 yoshda. 2013-2014 NYS Ma'lumotlar Tizimiga (SIRS) binoan, 61.5% AQSHda tug'ilgan.

Afsona 2: O'tmishda, muhorijlar Ingliz tili Yangi Til (ENL) va ikki tilli dasturlarsiz, til bilimini oshirgan edilar.

Ikki tilni bilish juda qadrlanadi. Vaqt o'zgarishi bilan, o'quvchilarning ta'limi va bilimi ishni qidirgan paytda talab qilinadi. Jahon iqtisodiyotida raqobatga ega bo'lishlari uchun NYSning Common Core ELA standartlarini amalga oshirtirishi bilan, o'quvchilarning til bilimi ilgor darajada bo'lishi talab qilinadi. ELLslarning ona tili yoki asosiy tili bilimlarini hisobga olib, muallimlar ELLslarning bilimlarini rivojlantirishlari va ularni institutga kirishga va kasb-hunar olishga tayyorlashlari shart.

Afsona 3: ELLlar ingliz tilida bemalol suhabatishlari bilan ularning akademik bilimi ham oshadi.

ELLslarning ijtimoyi til bilimi uch yil ichida mustahkamlanadi, akademik ingliz tili bilimiga erishish yetti yil ham olishi mumkin. O'quvchining ona tili yoki asosiy til bilimi va savodxonligi uning akademik ingliz tili bilimiga ham tasir qilishi mumkin.

Afsona 4: NYSning Ingliz tilini o'rganiyotgan o'quvchilarni aniqlash testidan (NYSITELL) yoki NYSning Ingliz tili ikkinchi til testidan (NYSESLAT) malakali darajada topshirgani bilan, o'quvchi yordamsiz oliy ta'limni olishi davom etirishi bo'ladi.

Malakali darajadagi o'quvchilar darslar davomida ularga hali ham o'qituvchining yordami kerak bo'lishi mumkin. Ta'lim Vakilining 154chi qism qoidalariga binoan, tuman maktablaridan sobiq ELL o'quvchilar ELL statusidan chiqishlari bilan keyingi ikki yil davomida ularga yordam berish talab qilinadi. Bundan tashqari, ushbu ikki yil davomida sobiq ELLlar uchun test sharoitlarni yaratish ham mumkin bo'ladi.

Afsona 5: ELLlar yuqori samaraga erishish uchun, darrov madaniy hayotga ko'nikishlari kerak.

"Olib yo'qot"dan ko'ra, yangi madaniyatni o'rganishdan oldin, o'quvchilar hali o'zlarining madaniy tajribalarini yangi madaniy tajribalar bilan bog'lanishlari va tushunishlari kerak. Ushanda ular o'zlarining madaniyatini saqlashlari mumkin bo'ladi. O'qituvchilar hamma o'quvchilarning avvalgi bilimlarini e'tiborga olib, yangi bilimlarni o'rgatishlari kerak.Ta'lim sifatini oshirish uchun sinfdagi barcha madaniy tajribalar ahamiyatga olinishi kerak.

Afsona 6: Agar bolalar uyda ingliz tilida va ona tilida so'zlasa, ularning nutq faoliyati buziladi.

Yo'q, bolalarning nutq faoliyati buzilmaydi va kechikmaydi. Ota-onalar farzandlari bilin ona tilida gapirishlari juda muhim. Inson miyasining sig'imi juda ham keng va bir necha tilni baravar o'rganish mumkin. Aslida, erta yoshdan ikki tilni o'rganish kasb bilim qobiliyatini kuchaytiradi.Bizning dunyo iqtisodiyotimizda, ikki tilni bilish akademik hamda iqtisodiy afzalliklarni oshiradi.

Ingliz tilini o'rganiyotgan o'quvchilar va turli tillarni o'rganiyotgan o'quvchilar haqida afsonalar (davomi)

Afsona 7: O'quvchilar ona-tilida/asosiy tilida mакtabda gapiрishlari kerak emas.

Qaysi maktablarda o'quvchilar ona tilida/asosiy tilida gapiрishlari quvvatlangan bo'lsa, usha maktablarda o'quvchilarning ta'lif olishi ularning ishtiroklariga qarab oshadi. Ushbu odat ularning izzatini oshirishga ham yordam beradi.

Afsona 8: Ingliz tili bilimini tezroq rivojlash uchun o'quv dasturi ingliz tilida bo'lishi kerak.

O'quvchining ona tilida/asosiy tilida beriladigan darslar uning ingliz tili bilimini rivojlantirishga yordam beradi. Ingliz tilini puxta o'rganish uchun o'quvchilar o'zlarining tilini yaxshi bilishlari kerak. Ikki tilli dasturlar ushbu yordamni samarali taqdim qiladi. O'quvchilar ikkinchi til olish bilimini va o'quv fanlar bilimini mustahkamlashadi va shu bilan bir qatorda ona tili/asosiy til bilimini saqlashlari bo'ladi.

Afsona 9: Ingliz tilini o'rganiyotgan o'quvchilar boshidan beri ingliz tilida o'qishlari kerak.

Taqqiqotlar shuni ko'rsatdiki, o'quvchilar o'qish qobiliyatlari bitta tildan boshqa tilga o'tkazishadi. Ona tilida/asosiy tilida o'qishni biladigan o'quvchilar ingliz tilida ham muvafaqiyatli o'qishlari bo'ladi.

"Ingliz tilini o'rganiyotgan o'quvchilar haqida afsonalarni fosh qilmoq" maqolasidan moslashtirilgan, Nyu York Shtat Birlashgan O'qituvchilar Tadqiqot va Ta'lif xizmatlari, 2015.




Quyidagi dalillar ikki til bilimi va ikki tilli ta'lismning muhim ilmiy-tadqiqotlarga asoslangan. Ikki til bilimining aqliy, ijtimoiy va kasbiy foydalari ancha boladi:

- Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ikki til bilimi miyaning rejalahritish, muammolarni hal qilish va talabchan vazifalarni amalga oshirish faoliyatlarini yaxshiladi.
- Ikkita tilni biladigan o'quvchilarning, atrofni nazorat qilish va e'tibor berish, qobiliyatlar ko'proq boladi.
- Ikki tilli ta'lism barcha madaniy amaliyotlarni hisobga oladi va o'quvchilarning ijtimoiyi rivojlantirishga qaratadi.
- Ikki tilli dasturlarda o'qiyotgan o'quvchilar o'zlarining aslliga va ona tiliga his qilishadi; shunday qilib ularning madaniyati boshqalar tomonidan ham qadrlanadi.
- Ikki til bilimi, kasbiy meros dir. Dunyo jamiyati o'sishi bilan, mehnat bozorida turli tillarda so'zlash va yozish qobiliyatları juda ham qadrlanadi.
- Farzandingizga ona tilida o'qish, ajoyib va foydali savodxonlik amaliyoti dir. Ushbu amaliyot uning akademik rivojlantirishiga ham ijobji tasir qiladi.

Amerikaning Pediatrlar Akademiyasi* turli tillarni biladigan bolalar ijtimoiyi siyosat hisobotini tasdiqlashdi. So'nrggi tadqiqot sintezi tibbiyot, psixologiya, ta'lim va tilshunoslik dalillarida asoslangan. Hisobot quyidagi xulosani chiqardi: turli tillar bilimi bolaning xayoti uchun foyda keltiradi, shuning uchun bola tillarni o'rGANISHNI parvarish qilish kerak. Qushimcha ma'lumotlar uchun:

<http://pediatrics.aappublications.org/content/133/5/e1481.full>

* Published online April 28, 2014. *Pediatrics* Vol. 133, No. 5, May 1, 2014.



Bilasizmi? Ikki tilli ta'lim va ikki til bilimi to'g'risida haqiqatlar (davomi)

Afsona 1: Ikkala tilni o'rganish farzandimni adashtiradi.

- Ikkala tilni bir paytda o'rganish bolalarni adashtirmaydi. Ikki til bilimi qadrlangan joyda, bolalar aqliy, ijtimoyi va iqtisodiy foydalarni ko'rishadi.
- Bittadan ko'p tilni biladigan bolalarda, til, xotira va e'tibor bilan bog'liq bo'lgan miyaning to'qimasi ko'proq bo'ladi.
- Turli tillarni biladigan bolalarning ijro etuvchi nazorati (rejalshtirish, yodlash, yangi muammoni hal qilish, va vasvasaga qarshilik qilish) va erta savodxonlik ko'nikmalari ancha bo'ladi.

Afsona 2: Bolalarning so'zlarni aralashtirganda ularning til bilimi past bo'ladi.

- So'zlarni aralashtirgan bolalarning til bilimi kam emas, ular hamma tilshunoslik resurslaridan foydalanishadi. Til rivojlanishi dinamik jarayondir. U ikkala tilni o'rganishni o'z ichiga oladi. ELLslarning ona tili/asosiy tili ular uchun asosiy resursidir. Shuning uchun ular undan foydalanib, ingliz tilni ham o'rganishadi.

Afsona 3: Agar farzandim boshqa tilni ham o'rganiyatgan bo'lsa u ingliz tilni o'rgana olmaydi.

- Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ikkinchi til bilimini ona tili orqali rivojlanadi. Ikki tilli dasturlarda qatnashadigan o'quvchilar, o'qituvchilar va muallimlar yordami bilan ikkala tilni samarali o'rganishadi va ikkala tilda savodli bo'lishadi.

Afsona 4: Farzandim ingliz tilini tezda o'rganish uchun faqat ingliz tilni o'rganishi kerak.

- Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ona tilini/asosiy tilini biladigan o'quvchilar ingliz tilini ham tezda o'rganishadi. Ona tili/asosiy til bilimi boshqa tilga ham o'tadi. Aslida, ona tilda o'qish, ingliz tilidan olib o'qish darajalarga erishish uchun yordamlaydi (Hisobot: [Milliy O'qish Komissiya: Farzandlar o'qishni qanday o'rganishadi, 2006](#).)

Ikki tilni bilish ancha foydalarni keltiradi, va *Nyu York Timesga binoan*, "ikki tilni bilish odamlarni aqlii qiladi." ([Nimaga ikki tilni biladiganlar aqlii bo'ladi, NYT, 2012](#))

2-4chi betlarda, Nyu York Shtati ELLslarga taqdim qilgan har bir dastur haqida qushimcha ma'lumotlarni bilib olishingiz mumkin.

Farzandingizning ta'limida ishtirok etish

Ota-onalar/vasiylar farzandlariga qanday yordam berishlari mumkin?

- Farzandingizga uning ona yoki asosiy tilida va ingliz tilida o'qing. Tadqiqotlar ko'rsatdiki, farzandingizning ingliz tilini bilimini rivojlantirish uchun unga ona tilida yoki asosiy tilida o'qing.
- Farzandingizga hikoyalarni ona tilida yoki asosiy tilida aytib bering. Farzandingiz bilan sizning bolalik yoki o'tmishdan eslagan narsalar haqida suhbatlashing.
- Farzandingizning ona tilini qadirlasiz deb unga ko'rsating. Farzandingiz ingliz tilda javob bersa ham u bilan ona tilida yoki asosiy tilida gapiring.
- Kutubxona kartochkasini farzandingizga oling. Kutubxonaga tashrif qiling. Kitoblarni ingliz yoki ona tilida yoki asosiy tilida olib turing.
- Maktabingiz tomonidan rejalashtirilgan ota-onalar uchrashuvlarda qatnashing.
- Farzandingizning o'qituvchisi bilan uchrashishga imkoniyat qiling va farzandingizga qanday yordam berishingiz to'g'risida suhbatlashing.
- Farzandingiz bilan uy vazifalarini har kuni bajarishga vaqt ajrating, iloji bo'la, vazifalarini tinch va halaqat bermagan joyda bajarsin.
- Oilangiz bilan muzeylarga qatnashing. Muzey gidlari, siz va farzandingizga mos bo'lgan ko'rgazmalarga yo'l ko'rsatadi.
- Amerika Qo'shma Shtatlarida, ota-onalar ta'llim tizimida muhim rol o'ynashadi. Farzandingizning o'qituvchisidan siz qanday qatnashingiz mumkin deb so'rang.
- Huquqlaringizni biling. Iltimos [Nyu York Shatining ingliz tilini o'rqiyaniyotgan o'quvchilarining ota-onalar huquqlari](#) bilan tanishib chiqing.



Colorín Colorado

Ingliz tilini o'rganiyotgan o'quvchilarning oilalari va muallimlari uchun ikki tilli websayti Amerikaning O'qituvchilar Federatsiyasi (AFT) ko'magida. Ushu saytda Ingliz tilini O'rganiyotgan O'quvchilarni o'rgatish to'g'risida ma'lumotlar mavjud.

<http://www.colorincolorado.org/>

Engage NY

EngageNY.org Nyu York Shtat Ta'lif Vazirligi tomonidan yaratilgan va (NYSED) Nyu York Shtat Board of Regents Reforma Tarkibini amalga oshirishga yordam beradi. EngageNY.org Nyu York Shtat muallimalarini muhim resurslar bilan ta'minlaydi. Shtatning o'quvchilarni institutga kirish va kasb-hunar olish tayyorgarligiga karatilgan orzular.

<https://www.engageny.org/>

Milliy bank idorasi Ikki Tilli Ta'lif uchun: Agar farzandingiz ikkita tilni o'rganiyotgan bo'lsa (broshura)

http://ncela.us/files/uploads/9>IfYourChildLearnsInTwoLangs_English.pdf

Milliy PTA: O'quvchilar muvaffaqiyatli bo'lishlari uchun ota-onalar qo'llanmasi

<http://www.pta.org/parents/content.cfm?ItemNumber=2583>

NYC DOE: ELL Oila Resurslari

<http://schools.nyc.gov/Academics/ELL/FamilyResources/Activities+For+Parents.htm>

<http://schools.nyc.gov/Academics/ELL/FamilyResources/default.htm>

Nyu York Shtat Ta'lif Vazirligining Ikki Tilli Ta'lif va Jahon Tillari Bo'limi

<http://www.p12.nysed.gov/biling/>

Nyu York Shat Immigratsiya Koalitsiyaning Xizmatlar Adres Daftari

http://www.thenyic.org/sites/default/files/Low_Cost_Immigration_Service_Providers_Final_Draft_6.15.15_0.pdf

PBS Bolalar

<http://pbskids.org/>

Reading Rockets: Ingliz tilini o'rganiyotgan o'quvchilar

<http://www.readingrockets.org/reading-topics/english-language-learners>

Birinchidan O'qitivchilar: ESL/ELL o'quvchilarning ota-onalari uchun g'oyalar va resurslar

<http://www.teachersfirst.com/par-esl.cfm>

Ingliz tilini Ingliz Tilini Bilmadigan/ Ingliz tilini O'rganiyotgan O'quvchilarga o'rgatish:

Ona tili bo'yicha o'quv standartlari

<http://www.p12.nysed.gov/biling/resource/NLA.html>

US Ta'lif Vazirligi

<http://www.ed.gov/>

USDOE Talabalarning federal yordam portalı

<https://studentaid.ed.gov/sa/resources/parents>

USDOE Farzandimga yordam berish: Hispanic oilalar uchun asbob (ingliz va ispan tillarida)

<http://www2.ed.gov/parents/academic/involve/2006toolkit/index.html>

USDOE Farzandingizga Yordam Bermoq qatorlari (ingliz va ispan tillarida)

<http://www2.ed.gov/parents/academic/help/hyc.html>

Ongli ota-onalar farzandlarning asosiy himoyachilari.

Iltimos ELL xizmatlari haqida savollarni va tashvishlarni yuboring:

nysparenthotline@nyu.edu

(800) 469-8224



Savollar uchun, iltimos tashrif qiling:

Illi Tilli Ta'lim va Jahon Tillari Bo'limi (OBEWL)

<http://www.p12.nysed.gov/biling/>

Prepared by the New York State Education Department, Office of Bilingual Education & World Languages
in collaboration with CUNY-New York State Initiative on Emergent Bilinguals (NYSIEB).

Special thanks to Dr. Carmina Makar and Dr. Dina López.